



## XXI ASRDA GENDER TENGLIGINING AHAMIYATI

Murodullayeva Moxinur Mirzo qizi  
JDPU Pedagogika va psixologiya fakulteti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada gender tengligining ahamiyati haqida ma'lumotlar keltiriladi. Ayollar va erkaklarning bugungi kunda jamiyatda tutgan o'rnini, oiladagi vazifalar, haq-huquqlari haqida tushunchalar berib o'tiladi.

**Abstract:** This article provides information about the importance of gender equality. The role of women and men in today's society, duties and rights in the family will be explained.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о важности гендерного равенства. Будет объяснена роль женщины и мужчины в современном обществе, обязанности и права в семье.

**Kalit so'zlar:** gender tenglik, genderli yondashuv, oila tarbiyasi, bola tarbiyasi, BMT, Ombudsman,

Gender tengligi va xotin-qizlar imkoniyatlarini yanada kengaytirish, sohasidagi tizimli o'zgarishlarni ilgari surish uchun jamiyatda mustahkam o'rnashib olgan stereotiplar va me'yorlarni o'zgartirish maqsadga muvofiq.

Buning uchun quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

- 1) huquqiy va ijtimoiy normalar va qoidalarni o'zgartirish.
- 2) ayollarning iqtisodiy va intellektual mustaqilligini oshirish,
- 3) ma'lumotlarni to'plash va monitoring qilish tizimini takomillashtirish.

Loyihaning asosiy hamkori O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati, Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi hisoblanadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Xotin-qizlar va oila masalalari qo'mitasi, Adliya vazirligi, Bosh prokuratura, Davlat statistika qo'mitasi, Inson huquqlari bo'yicha Milliy qo'mita, Ombudsman, fuqarolik jamiyati tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda ish olib boradi.

Bir yil oldin O'zbekiston hukumati 16 ta Barqaror rivojlanish maqsadlari va 127 ta milliy rivojlanish maqsadlarini qabul qildi.

Bunda hukumat kelgusi o'n yil ichida o'zaro hamkorlikdagi rivojlanishni jadallashtirish bo'yicha o'ziga xos rejalarni e'lon qildi.

O'zbekiston barqaror rivojlanish maqsadlari yo'lida gender tenglik masalalari bo'yicha quyidagilarni o'z zimmasiga oldi:

- Hamma jabhada ayollar va qizlarga nisbatan kamsitilishning barcha turlarini tugatish;
- Davlat va xususiy sektorda ayollar va qizlarga nisbatan zo'ravonlikning barcha turlarini yo'q qilish;
- Jamiyat hayotida ayollarning to'liq va samarali ishtirokini va barcha darajada yetakchilik uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash;



● Davlat dasturlarini qabul qilish jarayonida gender tengligi tamoyillarini to'liq aks ettirish.

Bir yil oldin biz ushbu rejalarni amalga oshirishda muhim yutuqlarga guvoh bo'ldik. Gender tengligi va ayollarga nisbatan zo'ravonlikni oldini olish to'g'risida ikkita qonun qabul qilindi hamda ayollarni rahbarlik rolga va tadbirkorlikka jalb qilishga, ta'lim imkoniyatlarini kengaytirishga va oiladagi zo'ravonlikdan jabrlangan ayollarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator tadbirlar amalga oshirildi.

O'zining milliy barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida hukumat yoshlar uchun aniq rejalarni qabul qildi, shu jumladan:

2030-yilga kelib ish bilan ta'minlanmagan yoki o'qimaydigan yoshlar sonini kamaytirish;

2030-yilgacha yoshlarni to'liq va samarali ish bilan ta'minlash;

Yoshlarning texnik va kasbiy mahoratga hamda ish bilan bandligiga erishish, munosib ish joylariga kirish va tadbirkorlikni boshlash imkoniyatlarini oshirish.

Shuningdek, biz yana bir bor hukumatning Beshta tashabbus dasturi doirasida yoshlar uchun qabul qilgan aniq rejaları va amalga oshirayotgan harakatlarini ko'rdik. O'zbekiston BMTning Global Yoshlar 2030 dasturini amalga oshiruvchi mamlakat bo'lishda tashabbus ko'rsatdi.

O'zbekiston aholisining 60 foizidan ko'prog'i 30 yoshgacha bo'lgan yoshlardir. Ularning yarmi esa, shubhasiz, ayollar. Yoshlar va ayollarning foydalanilmagan imkoniyatlarini ishga solish nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki inson huquqlarini ta'minlashga va jamoatchilik hamjihatligini mustahkamlashga yordam beradi.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, gender tenglik, yoshlar va migratsiya masalalarini qamrab olgan bugungi forum o'rinli va dolzarbdir.

25 noyabr, dushanba kuni Ayollarga nisbatan zo'ravonlikni yo'q qilish kuni nishonlandi. Bu kun har yili butun dunyoda, shuningdek, O'zbekistonda ham "Gender asosidagi zo'ravonlikka qarshi faollik" chaqirig'i bilan o'tadi.

BMT Bosh kotibi Antonio Guterrish bir necha bor ta'kidlaganidek, gender notengligiga asoslangan zo'ravonlik muammosi ayollar va qizlarning jamiyatdagi rolga nisbatan saqlanib qolgan butun dunyoda keng tarqalgan eskicha munosabat va qarashlardan kelib chiqadi.

BMT rasmiysi sifatida men bunday eskicha qarashlarni bartaraf etish uchun aniq choralar ko'rayotgan mamlakatda xizmat qilayotganimdan mamnunman. Shunga qaramay ulkan milliy maqsadlarni amalga oshirishda yanada mustahkam yutuqlarni ta'minlash uchun ko'p ishlar amalga oshirilishi lozim. Bugungi tadbirda ko'plab rahbar ayollarning ishtiroki – bu bir qadam oldinga demakdir! Shuningdek, men juda ko'p erkak rahbarlarning ishtirokini ham e'tirof etishim lozim, chunki bu masalani hal qilish uchun barchamiz birlashishimiz kerak.

Shuningdek, biz BMT jamoasida yoshlar va ayollarning xohish-istaklari, ehtiyojlari va takliflarini o'z rejalарimizning asosiy qismiga aylantirmoqdamiz.

Biz aminmizki, ayollar va yoshlar 2030-yilgacha mo'ljallangan dasturdan shunchaki manfaatdor bo'lishdan tashqari, uni amalga oshirish, kuzatib borish va ko'rib chiqishda faol ishtirokchi bo'lishi darkor.



Shu sababli so'nggi besh hafta davomida BMTning navbatdagi hamkorlik loyihasiga tayyorgarlik ko'rayotgan jamoamiz 5 ta mintaqada 1200 dan ortiq insonlar, jumladan, 500 ga yaqin ayollar va yoshlar, imkoniyati cheklangan shaxslar va boshqalar bilan uchrashdi.

Ushbu muloqotlar davomida bugun muhokama qilinayotgan ko'plab muhim mavzular ko'rib chiqildi: munosib mehnat sharoitlariga erishish, gender tengligini ta'minlash, sifatli oliy ma'lumot olish va tadbirkorlik imkoniyatlari; nogironlikka asoslangan eskicha qarashlar va migratsiya bilan bog'liq muammolar shular jumlasidandir.

U-report milliy platformasi orqali 30 ming nafar yoshlar ishtirok etgan so'rovnoma natijalari yoshlar o'rtasida hozirda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga katta qiziqish borligini va ular o'zgarishlarning ishtirokchisiga aylanish, ta'lim va ish bilan ta'minlash harakatiga ta'sir ko'rsatishni istashlarini ko'rsatmoqda.

Ushbu masalalarning barchasi haqli ravishda hukumat dasturi kun tartibiga kiritilgan.

Bugungi Forum 2030 yilgacha mo'ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlariga

BMT O'zbekiston jamoasi Barqaror rivojlanishning milliy maqsadlariga erishish uchun muhim shart bo'lgan gender tengligi va yoshlarning to'liq ishtirokida hukumatni qo'llab-quvvatlash bo'yicha birgalikdagi sa'y-harakatlarni faollashtirishga chaqiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, gender tengligi bugungi zamonning muhim talablaridan biridir. Gender ijtimoiylashuv maktab o'quvchilarining rivojlanishi va moslashuvi jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, shaxsiy va kasbiy sohalarda o'zini o'zi belgilashga yordam beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kalabixina Irina Yevgenevna kandidat ekonomicheskix nauk, dotsent kafedri narodonaseleniya ekonomicheskogo fakulteta MGU.
2. ↑ Kalabixina I. Ye. Kratkiy ponyatiyniy slovar po gendernim issledovaniyam // Sotsialniy pol: ekonomicheskoe i demograficheskoe povedenie Uchebno-metodicheskoe materialy po kursu. M., 1998.
3. ↑ Gender tenglik bo'yicha butunjahon statistikasi.
4. ↑ Gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxati (PDF).
5. ↑ <https://lex.uz/docs/-4494849> Xotin-qizlar teng huquq kafolatlari to'g'risidagi O'RQ-562 02.09.2019
6. ↑ Gender tenglik komissiyasi haqidagi rasmiy saytining „Komissiya haqida“ sahifasi, 2021-04-14da asl nusxadan arxivlandi, qaraldi: 2021-04-14